



IQTISODIY ATAMALARINI O’RGATISHDA ZAMONAVIY DIDAKTIK TEXNOLOGIYALAR

Muallif: Barno Ramizitdinovna Djamalutdinova¹

Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti, “Chet tillar” kafedrasi katta o’qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17318245>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada iqtisodiy atamalarni talabalarga samarali o’rgatishda zamonaviy didaktik texnologiyalarni qo’llashning afzallikkleri tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida an’anaviy usullar va interaktiv metodlar o’rtasida solishtirma tahlil o’tkazilib, ularning samaradorligi taqqoslangan. Xususan, klaster, “Aqliy hujum”, “Insert” kabi interaktiv yondashuvlarning o’quvchilar faoliyatini faollashtirish, iqtisodiy terminlarni tezroq va mustahkamroq o’zlashtirish, shuningdek, amaliy ko’nikmalarni shakllantirishdagi o’rnii ilmiy asoslarda yoritilgan. O’tkazilgan tajriba natijalari zamonaviy didaktik texnologiyalar talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni yechish hamda iqtisodiy tushunchalarni amaliyotda qo’llash qobiliyatini rivojlantirishga samarali ta’sir etishini ko’rsatdi.

Kalit so’zlar: iqtisodiy atamalar, didaktik texnologiyalar, interaktiv metodlar, ta’lim samaradorligi, talabalar faoliyati, ta’lim jarayoni, metodik yondashuvlar, amaliy qo’llanma, samaradorlik.

KIRISH

Globallashuv jarayonida dunyo miyosida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Shu bois iqtisodiy bilimlar barcha sohalarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda xalqaro bozor munosabatlari, moliyaviy tizim, investitsiyalar, marketing, boshqaruv kabi yo’nalishlarda muvaffaqiyatga erishish uchun iqtisodiy atamalarni chuqur o’zlashtirish zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun iqtisodiy terminologiyani mukammal bilish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida mustaqil qaror qabul qilish, tahliliy fikrlash va amaliy muammolarni hal etishda muhim poydevor bo’lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy atamalarni o’zlashtirish jarayoni faqatgina nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmaydi. Talaba ushbu tushunchalarni turli iqtisodiy vaziyatlarda qo’llay olishi, real hayotiy misollar asosida ulardan foydalana olishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ta’lim jarayonida zamonaviy didaktik texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Chunki bunday texnologiyalar o’quv jarayonini faollashtiradi, talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga undaydi, darsni esa qiziqarli va samarali shaklga keltiradi.

Masalan, interaktiv metodlar yordamida talabalarning iqtisodiy atamalarni amalda qo’llash ko’nikmalari rivojlanadi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Debat” kabi metodlar orqali talabalar bilim olish jarayonida faol ishtirok etadilar, o’z fikrlarini asoslaydilar va iqtisodiy tushunchalarni turli nuqtai nazardan tahlil qiladilar. Bundan

tashqari, raqamli texnologiyalar – onlayn platformalar, test tizimlari va virtual laboratoriylar orqali bilimlarni yanada samarali o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Shu sababli iqtisodiy terminlarni o'rgatishda yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish bugungi kun ta'lif tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki zamonaviy didaktik texnologiyalar yordamida nafaqat nazariy bilimlar puxta o'zlashtiriladi, balki talabalar real hayotiy vaziyatlarda iqtisodiy tushunchalarni qo'llashga tayyorlanadi. Natijada bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot quyidagi metodlarga tayangan:

- Nazariy tahlil – iqtisodiy terminlarni o'qitish bo'yicha ilmiy manbalarni o'rGANISH;
- Pedagogik kuzatuv – talabalarning dars jarayonidagi faoliyatini baholash;
- Eksperiment – an'anaviy va interaktiv texnologiyalarni taqqoslash asosida o'quv samaradorligini aniqlash;
- So'rovnama va suhbat – talabalar fikrlarini tahlil qilish. Mazkur metodologik yondashuv natijalarni xolisona baholash imkonini berdi.

TAJRIBA

Tadqiqot jarayonida tajriba Toshkent shahridagi iqtisodiy yo'nalishda ta'lif olayotgan talabalar bilan amalga oshirildi. Tajribada 60 nafar talaba ishtirop etdi va ular shartli ravishda ikki guruuhga bo'lindi.

Birinchi guruuh – an'anaviy usullar asosida ta'lif oldilar. Dars jarayonida asosan ma'ruza, og'zaki izoh, konspekt yozish va yozma topshiriqlar bajarish usullari qo'llanildi. Talabalar bilimlarni ko'proq tinglovchi sifatida qabul qildilar, mustaqil izlanish va faol ishtirop darajasi pastroq bo'ldi.

Ikkinci guruuh – zamonaviy didaktik texnologiyalar asosida o'qitildi. Bu guruhda klaster usuli, "Aqliy hujum", "Insert", interaktiv onlayn platformalardan foydalanish, shuningdek, kichik guruhlarda amaliy loyihamalar tayyorlash kabi metodlar joriy etildi. Darslar jarayonida talabalar faolligi sezilarli darajada oshdi, ular o'z fikrlarini erkin bayon qilish, muhokamalarda qatnashish va amaliy vazifalarni mustaqil bajarishga intildilar.

Tajriba davomida talabalar iqtisodiy terminlarni faqat yodlab olish bilan cheklanmay, balki ularni turli iqtisodiy vaziyatlarda qo'llashni mashq qildilar. Masalan, "rol o'ynash" mashg'ulotlari orqali talabalar bank xodimi, mijoz yoki tadbirdor sifatida turli muloqotlarda iqtisodiy atamalardan foydalanishni o'rgandilar. Shuningdek, interaktiv onlayn testlar va topshiriqlar orqali bilimlarni nazorat qilish va baholash samarali tashkil qilindi.

Ushbu tajriba shuni ko'rsatdiki, zamonaviy didaktik texnologiyalar asosida o'qitilgan talabalar nafaqat faolroq ishtirop etdilar, balki iqtisodiy atamalarni amaliyotda qo'llashga nisbatan ko'proq tayyorgarlikka ega bo'ldilar. Mustaqil ishslash, muammoli vaziyatlarni yechish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarining shakllanishi an'anaviy guruuh bilan solishtirganda ancha yuqori natija berdi.

NATIJALAR

Tajriba natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- Zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lif olgan talabalar iqtisodiy atamalarni 30–35% samaraliroq o'zlashtirdilar.
- So'rovnama natijalariga ko'ra, talabalarning 80%i interaktiv metodlar yordamida o'qish jarayoni qiziqarli va foydali bo'lganini bildirdi.
- Talabalarda iqtisodiy terminlardan foydalanishda amaliy ko'nikmalar sezilarli darajada rivojlandi.
- An'anaviy usullarda o'qigan talabalarga nisbatan, interaktiv guruhda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyati yuqoriq bo'ldi.

XULOSA

Iqtisodiy atamalarni o'rgatishda zamonaviy didaktik texnologiyalarni qo'llash ta'lif samaradorligini oshiradi, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki iqtisodiy tushunchalarni kundalik hayot va kasbiy faoliyatda qo'llash imkonini beradi. Shu bois, ta'lif jarayonida an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xodjayev, B. Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lif jarayonidagi o'rni. Toshkent. . 2022.
2. Karimov, A. Zamonaviy didaktik yondashuvlar. Samarcand: SamDU nashriyoti. 2021.
3. Shavkatova, D. Interaktiv metodlar orqali iqtisodiy bilimlarni o'qitish samaradorligi. O'zbekiston pedagogika jurnali, №4. 2020.
4. Modern Approaches in Teaching Economics. Paris. UNESCO 2019.
5. Smith, J. Educational Technology in Economics. New York: Springer. 2018.